

**OMMAVIY OFERTA**  
**(Logistika xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma)**  
**«Marketplace Trading» AJ**

Toshkent sh.

«\_\_\_\_\_» iyul 2024 y.

Ushbu Shartnoma "Sello" savdo belgisi ostida faoliyat yurituvchi "Marketplace Trading" AJning (*keyingi o'rinlarda – Ijrochi*) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq Sello Logistic logistika xizmatidan foydalanish to'g'risidagi xizmat ko'rsatish shartnomasini (*keyingi o'rinlarda – Shartnoma*) tuzish uchun muomala layoqatiga ega jismoniy shaxslarga (*keyingi o'rinlarda – Buyurtmachi*) rasmiy taklif – ommaviy ofertadir.

Foydalanuvchining Shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni bajarishi uning akseptni – quyidagi shartlar bilan shartsiz roziligini anglatadi. Shartnoma aksept paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Shartnomada to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan barcha masalalarda taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ish muomalasi odatlariga amal qiladilar.

**1. Atamalar**

**Oferta aksepti** - Buyurtmachi tomonidan Mahsulotni Ijrochiga tashish uchun topshirish yo'li bilan Ofertani to'liq va pisandasiz qabul qilish.

**Buyurtmachi** - akseptni amalga oshirgan jismoniy shaxs, unga ko'ra ushbu Shartnoma ushbu shaxs va Ijrochi o'rtasida tuzilgan deb hisoblanadi.

**Oferta** – Jamiyatning keng qamrovli logistika xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi, <http://www.sello.uz> internet tarmog'ida e'lon qilingan, Buyurtmachi tomonidan ushbu Ofertani Akseptlash orqali tuziladigan mazkur ommaviy shartnoma.

**Jo'natma** - jo'natish Ijrochi orqali amalga oshiriladigan hujjatlar va (yoki) mahsulot tarkibli jo'natmalar.

**Logistik xizmatlar tariflari** – Sello Superapp ilovasida, shuningdek <http://www.sello.uz> veb-saytida e'lon qilinadigan narxlari bilan Ijrochi tomonidan taqdim etiladigan pullik xizmatlarning joriy tizimli ro'yxati.

**2. Shartnomaning predmeti**

2.1. Ushbu Shartnoma shartlariga ko'ra, Kompaniya Buyurtmachining ko'rsatmasi bo'yicha oluvchilarga Yuklarni qabul qilish, yetkazib berish va topshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladi.

Shu bilan birga, Ijrochi muomaladan chiqarilgan yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan muomalasi cheklangan yuklarni qabul qilmaydi.

2.2. Shartnomani tuzish va xizmatlarni ko'rsatishni boshlash vaqti Buyurtmachidan yukni qabul qilish va (yoki) schyot-fakturani va (yoki) xizmatlarga ariza berish tartibi hisoblanadi.

2.3. Ijrochiga xizmatlariga buyurtma berish Buyurtmachi ularni taqdim etish shartlari bilan tanishganligini va roziligini tasdiqlaydi. Logistika xizmatlarini ko'rsatish qoidalari va unga kiritilgan o'zgartirishlar Ijrochining <http://www.sello.uz> veb-saytida e'lon qilingan...

2.4. Qabul qiluvchi jo'natishni qabul qilish dalolatnomasini imzolagan paytdan boshlab xizmat ko'rsatilgan hisoblanadi.

**3. Taraflarning huquq va majburiyatlari**

3.1. Ijrochining majburiyatlari:

3.1.1. Ushbu Shartnoma va Nizom shartlariga muvofiq xizmatlar ko'rsatish.

3.1.2. Buyurtmachi tomonidan yuborilgan ariza asosida Buyurtmachidan Jo'natmalarni qabul qilish. Tomonlar Ijrochi Buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar va hujjatlarning aniqligi, yetarliligi va ishonchliligini tekshirishga majbur emasligini qabul qiladilar.

3.1.3. Jo'natmaning Buyurtmachidan olingan paytdan boshlab, Qabul qiluvchiga topshirilgunga qadar xavfsizligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rish, shu jumladan Jo'natma tarkibini uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik.

3.1.4. Jo'natmalarni tezda yetkazib berishni ta'minlash uchun barcha oqilona choralarni ko'rish.

3.1.5. Tariflar va xizmat ko'rsatish shartlariga kiritilgan barcha o'zgarishlarni ularning amal qilish muddati boshlanishidan kamida o'n kun oldin <http://www.sello.uz> veb-saytida va Sello Superapp ilovasida joylashtirish.

3.1.6. Buyurtmachining so'roviga binoan ushbu shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar haqida barcha kerakli ma'lumotlarni taqdim etish.

3.2. Ijrochining huquqlari:

3.2.1. Xizmatlar ko'rsatishda mustaqil ravishda ham, jalb qilingan shaxslarning yordami bilan ham o'z harakatlari uchun javobgar bo'lib harakat qilish.

3.2.2. Agar Nizomda taqiqlangan buyumlar, moddalar va mahsulotlar bo'lsa, xizmatlar ko'rsatishni rad etish.

3.2.3. Buyurtmachidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida va to'liq haq to'lashni, shuningdek ushbu Shartnomaning boshqa shartlariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga rioya etishni talab qilish.

3.2.4. Oldindan to'lov bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan taqdirda, mijozga xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish.

3.2.5. Buyurtmachidan tashish uchun yaroqsiz bo'lgan qadoqdagi Jo'natmani va/yoki Qabul qiluvchi haqida to'liq aloqa ma'lumotlar taqdim etilmasa qabul qilmaslik.

3.3. Buyurtmachining majburiyatlari:

3.3.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda Ijrochining xizmatlari uchun haq to'lash.

3.3.2. Ijrochiga Jo'natmaning xususiyatlari haqida, shu jumladan Ijrochining mol-mulki va/yoki xodimlariga yoki atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, tegishli ma'lumotlarni taqdim etmasdan, topshirmaslik.

3.3.3. Qabul qiluvchi tomonidan to'lov shartlari asosida yetkazib berilgan Jo'natma uchun haq to'lash, agar Qabul qiluvchi ushbu Jo'natmani yetkazib berish uchun to'lashdan bosh tortsa.

3.3.4. Nizomda belgilangan barcha shartlarni lozim darajada bajarish va ularga rioya etish. <http://www.sello.uz> veb-saytida joylashtirilgan tariflar va Nizomdagi o'zgarishlarni mustaqil ravishda kuzatib borish.

3.3.5. Agar Buyurtmachi Qabul qiluvchining noto'g'ri va/yoki to'liq bo'lmagan manzilini ko'rsatgan bo'lsa, shuningdek, Qabul qiluvchi Jo'natmani qabul qilishdan bosh tortgan taqdirda, Ijrochining Jo'natmani qaytarish uchun qilgan xarajatlarini qoplash.

3.3.6. Xizmatdan voz kechish to'g'risida Jo'natmani qabul qilish/yetkazib berishning rejalashtirilgan vaqtdan kamida bir soat oldin Ijrochiga telefon, elektron yoki boshqa aloqa orqali xabar berish.

3.4. Buyurtmachining huquqlari:

3.4.1. Ijrochi faoliyatiga aralashmasdan xizmatlarning ko'rsatilishi jarayoni haqida ma'lumot so'rash.

3.4.2. Sello Superapp ilovasidagi "Shaxsiy kabinet" bo'limi tomonidan taqdim etilgan qo'shimcha xizmatlardan foydalanish.

3.4.3. Taqiqlangan tarkibga ega Jo'natmalarni Ijrochiga yetkazib berish uchun topshirmaslik va Ijrochi tomonidan jo'natish uchun mo'ljallangan qo'shimchalar haqida ishonchli va to'liq ma'lumot berish.

#### **4. Ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish va topshirish tartibi**

4.1. Ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi, u ham hisob hisoblanadi va Taraflar tomonidan quyidagi tartibda imzolanadi.

4.1.1. Ijrochi Mijozga dalolatnoma/hisobning ikki nusxasini beradi va Buyurtmachi uni olgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida imzolashi va imzolangan dalolatnoma/hisobning bir nusxasini imzolanganidan keyingi birinchi ish kunidan kechiktirmay Ijrochiga qaytarishi shart.

4.1.2. Ijrochi hisobot davri tugaganidan keyin 3 ish kuni ichida dalolatnomalar/hisoblarni Buyurtmachiga elektron shaklda o'tkazadi (ushbu Shartnomaning 4.2-bandida belgilangan to'lov shartlariga qarab).

4.1.3. Hisobot davrida Ijrochi tomonidan xizmatlar ko'rsatilgan barcha Jo'natmalar uchun dalolatnomalar/hisoblar rasmiylashtiriladi. Asl dalolatnomalar/hisoblar hisobot oyidan keyingi o'ning 20-kunidan oldin taqdim etilmaydi

Taraflar qabul qilishadiki, agar Qabul qiluvchi Ijrochiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Jo'natmani qabul qilishdan bosh tortsa, xizmat Ijrochi tomonidan taqdim etilgan deb hisoblanadi.

4.2. Agar Buyurtmachida ko'rsatilgan xizmatlarning Shartnoma shartlariga muvofiqligi to'g'risida asosli

talabnomalar bo'lsa, Buyurtmachi ishbu talabnomalarni yozma ravishda bayon qilishi va ularni Ijrochiga tegishli dalolatnoma/hisob olingan kundan boshlab 5 ish kunidan kechiktirmay topshirishi shart. Asoslangan talabnomada ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilgandan so'ng, Taraflar tegishli ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasini imzolaydilar.

4.3. Agar Buyurtmachi qabul qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida dalolatnomani imzolashdan bosh tortsa yoki uni imzolashdan bo'yin tovlasa va Ijrochiga asoslantirilgan talabnomalarni bildirmasa, Ijrochi dalolatnomada Buyurtmachining uni imzolashdan bosh tortganligi to'g'risida belgi qo'yadi. Bunday sharoitda Ijrochi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini, shu jumladan xizmatlarni ko'rsatishni lozim darajada bajargan deb hisoblanadi.

## **5. Xizmatlar narxi va to'lov tartibi**

5.1. Ijrochi xizmatlarining narxini hisoblash va to'lash Sello Superapp ilovasida va <http://www.sello.uz> veb-saytida ko'rsatilgan Ijrochinng tariflari bo'yicha Yukning hajmli va jismoniy og'irligidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shartnoma bo'yicha tariflar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida "so'm"-da o'zlashtirilgan.

5.2. To'lov Buyurtmachi tomonidan ham Jo'natmani rasmiylashtirishda (naqd va naqdsiz usullarda), ham Qabul qiluvchi tomonidan Jo'natmani qabul qilish vaqtida (naqd va naqdsiz usullarda) amalga oshirilishi mumkin.

## **6. Taraflarning javobgarligi**

6.1. Taraflar o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan doirada javobgar bo'ladilar.

6.2. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov kechiktirilgan yoki to'lanmagan taqdirda, Ijrochi Buyurtmachidan kechiktirilgan har bir kun uchun qarz summasining 0,5 foizi, lekin muddati o'tkazib yuborilgan yoki to'lanmagan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda neustoyka to'lashni talab qilishga haqlidir. Agar Buyurtmachi to'lov majburiyatlarini bajarmasa, Ijrochi xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turishga haqli. Shu bilan birga, Ijrochi Mijozning Jo'natmalarini mavjud qarz to'liq to'lanmaguncha ushlab turish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.3. Buyurtmachi Jo'natmaning xususiyatlari, yetkazib berish shartlari, shuningdek Ijrochi xizmatlarining narxi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchiligi nuqtai nazaridan Qabul qiluvchi bilan o'zaro munosabatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

6.4. Ijrochi O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalariga muvofiq cheklangan darajada javobgar bo'ladi. Ijrochining javobgarligi miqdori Nizom bilan belgilanadi.

6.5. Agar Shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik Buyurtmachi va/yoki Qabul qiluvchining aybi bilan yuzaga kelgan bo'lsa, Ijrochi javobgar emas.

## **7. Maxfiylik siyosati**

7.1. Mazkur Maxfiylik siyosati O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 iyuldagi O'RQ-547-son "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi" Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan. Ushbu siyosat Ijrochi ushbu shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish jarayonida Buyurtmachi va Qabul qiluvchi haqida olishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi.

7.2. Buyurtmachi tomonidan Ijrochiga ariza topshirish foydalanuvchining ushbu Siyosatga va unda ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash shartlariga pisandasiz roziligini anglatadi. Ushbu shartlarga rozi bo'lmagan taqdirda, foydalanuvchi jo'natma taqdim etishdan bosh tortishi kerak.

7.3. Ushbu shartnomada shaxsiy ma'lumotlar quyidagilarni anglatadi: buyurtmachining telefon raqami, uning bank kartasi rekvizitlari, to'liq ismi, va Buyurtmachining jinsi, qurilma haqidagi ma'lumotlar; Sello Superapp ilovasida foydalaniladigan xizmatlar, masofa, summa, vaqt, to'lov usuli va jo'natmalarni Qabul qiluvchi haqidagi ma'lumotlar va ushbu operatsiyalar bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar.

7.4. Ijrochi tomonidan olingan ma'lumotlar xizmatlar ko'rsatish maqsadida, shuningdek Ijrochi xizmatlarini yaxshilash uchun tadqiqot maqsadlarida ishlatilishi mumkin.

7.5. Ijrochi foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini ruxsatsiz yoki tasodifiy kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, bloklash, nusxalash, tarqatish, shuningdek uchinchi shaxslarning u bilan bo'lgan boshqa noqonuniy harakatlaridan himoya qilish uchun zarur va yetarli tashkiliy va texnik choralarini ko'radi.

## **8. Yengib bo'lmaz kuch holatlari**

8.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha har qanday Tarafning majburiyatlarini bajarishning imkonsizligini yoki qisman bajarilishiga olib keladigan yengib bo'lmaz kuch holatlari (fors-major holatlari) yuzaga kelsa, ya'ni yong'in, tabiiy ofatlar, pandemiya, urush, har qanday tabiatdagi harbiy operatsiyalar, blokada yoki Taraflarga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlarda, ijro muddati bunday holatlar qo'llaniladigan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar ushbu holatlar 3 (uch) oydan ortiq davom etsa, Taraflarning har biri Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish huquqiga ega bo'ladi, bu holda Taraflarning hech biri boshqa Taraf tomonidan mumkin bo'lgan zararni qoplash huquqiga ega bo'lmaydi.

8.3. Majburiyatlarini bajarish imkoni bo'lmagan Taraf birinchi imkoniyatda boshqa Tarafni ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning paydo bo'lishi yoki bekor qilinishi to'g'risida xabardor qilishi shart.

8.4. Fors-major holatlari mavjudligining va ularning davomiyligining tegishli isboti sifatida vakolatli organlar tomonidan ushbu holatlar sodir bo'lgan joyda bayon qilingan rasmiy bayonotlar (shu jumladan ma'lumotnomalar) xizmat qiladi.

## **9. Boshqa shartlar**

9.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan barcha boshqa shartlar bo'yicha Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

9.2. Shartnoma Buyurtmachi Jo'natmaga buyurtma bergan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajarmaguncha amal qiladi.

9.3. To'g'ridan-to'g'ri nomlangan va Ijrochining veb-saytida tegishli bo'limda joylashtirilgan Ilovalar va ommaviy oferta xususiyatiga ega bo'lgan haq evaaziga logistika xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi Nizom Ushbu Shartnomaning ajralmas qismidir.

9.4. Ushbu Shartnomani bajarishda yuzaga keladigan barcha nizolarni Taraflar muzokaralar yo'li bilan hal qilishadi.

9.5. Agar kelishuvga erishilmasa, Taraflar o'rtasidagi nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

### **Taraflarning tafsilotlari:**

#### **IJROCHI**

#### **«MARKETPLACE TRADING» AJ**

Manzil: Toshkent sh., Shayxontohur tumani,

Zulfiyaxonum ko'chasi, 12-uy.

h/r 2020 8000 6052 7332 0001

AT "Aloqabank" Shayxontohur KXKM

MFO: 00401, STIR 307 692 757, OKED

62 090

Tel.: \_\_\_\_\_

#### **Bosh direktor**

Yusupov I. A. \_\_\_\_\_